

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“Sharq-u G‘arb: Navoiy va Gyote” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya**

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, jahon adabiyotshunosligi va komparativistikasi erishayotgan yutuqlaridan boxabar bo‘lish, Sharq va G‘arb Renessans adabiyotini Alisher Navoiy va Gyote ijodi bo‘yicha qiyosiy o‘rganish, Navoiy va Gyote ijodini tadqiq etishning mustaqillikdan keyingi taraqqiyotini belgilab olish maqsadida 2023-yil 21-iyun kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasini tomonidan **“Sharq-u G‘arb: Navoiy va Gyote”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Ilmiy-nazariy konferensiyaning **maqsadi** milliy falsafa, etik-estetik tafakkur kengliklariga teranroq kirib borish, Navoiy ijodining jahon badiiy tafakkuri tarixida tutgan o‘rni va bugungi kundagi ma’rifiy ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Konferensiya jarayonida yechimi kutilayotgan nazariy muammolar va ilmiy vazifalar:

- “ma’rifat” tushunchasi mohiyati, genezisi, tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, ma’rifatchilik va badiiy adabiyot, ma’rifat va milliy ma’naviyat masalalarining etik-estetik, ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr yuritish;
- Sharq ma’rifatchiligining G‘arb ma’rifatchilik falsafasi, badiiy-estetik tafakkuri bilan uyg‘un va farqli tomonlarini o‘rganish, muammoga doir aniq ilmiy kriteriylarni belgilash;
- Navoiy asarlarida G‘arb kishisi obrazi, G‘arb mamlakati, tabiatiga doir ramziy-majoziy, real-pragmatik talqinlar mohiyatini yoritish;
- Gyotening islom fenomeni, islom muhiti, musulmon shaxsiyati, Sharq-islom adabiyoti va shoirlari xususidagi qarashlarini milliy adabiyotshunoslik mezonlari asosida tadqiq etish;
- Sharq va G‘arb adabiyoti tipologiyasiga oid nazariy masalalar, xususan, Navoiy va Gyote ijodining uyg‘un jihatlariga diqqat qaratish, komparativistika muammolarining amaliy yechimlariga doir aniq takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolaga qo‘yiladigan talablar:

I. Ilmiy talablar:

1. Maqolada ilmiy dalillar to‘g‘ri ko‘rsatilishi, manbalar aniq qayd etilishi kerak.
2. Maqola-tadqiqot aniq ilmiy sistemani namoyon etishi: muqaddima, asosiy mulohazalar va yakuniy xulosadan iborat kompozitsion tuzilishga ega bo‘lishi lozim.
3. Maqola konferensiya oldiga qo‘yilgan ilmiy vazifalar, nazariy muammolarga muvofiq kelishi, unda qiyosiy adabiyotshunoslik va nazariy adabiyotshunoslikning fundamental masalalari aks etishi maqsadga muvofiq.
4. Tadqiqot markazida milliy ma’rifat konsepsiyasi turishi, muqoyasa jarayonlari xolis, belgilangan ilmiy kriteriylar doirasida amalga oshirilishi talab etiladi.

II. Texnik talablar:

1. Taqdim etilgan maqolalar tahrir hay’ati tomonidan ko‘rib chiqilib, ilmiy saviyasi past baholangan yoxud anjuman tematikasiga mos kelmagan holatda to‘plamga kiritilmaydi.

2. Konferensiya doirasida kelib tushgan maqolalar antiplagiat elektron tizimida tekshiriladi, noyoblik darajasi past bo'lgan ishlar nashrga tavsiya etilmaydi.

3. Xalqaro konferensiya tashkiliy qo'mitasi ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan, tahrir hay'ati nashrga tavsiya etmagan, iqtibos keltirmasdan turli manbalardan ko'chirib olingan maqolalarni chop etishga hamda mualliflarga qaytarishga javobgar emas.

4. Maqolalar o'zbek, rus, ingliz, nemis, fransuz, arab, fors va barcha qardosh turkiy xalqlar tillarida qabul qilinadi;

5. Maqolalarning umumiy hajmi 4-6 sahifani tashkil qilishi kerak;

6. Matn formati: Word, MS, shrift Times New Roman (14); maqola matni A4 o'lchovida yuqoridan, pastdan, chapdan va o'ngdan 2 sm joy qoldirilib; 1,5 intervalda rasmiylashtiriladi;

7. Mavzuning nomi matnning tepa qismida katta harflar bilan qoraytirilib, satr o'rtasiga avtomatik tarzda keltirilib qo'yiladi. Keyingi qatorda o'ng tarafda maqola muallif(lar)ining ismi, familiyasi va otasining ismi, undan keyingi qatorda ilmiy daraja va unvonlari (agar bo'lsa), ish joyi to'liq ko'rsatilishi kerak, telefon raqami va elektron pochta manzili kursiv bilan beriladi.

8. Annotatsiya va kalit so'zlar (maqola qaysi tilda yozilishidan qat'iy nazar) ikki tilda – o'zbek va ingliz tillarida keltiriladi. Annotatsiya hajmi 250 belgidan oshmasligi, kalit so'zlar esa 5-6 ta so'zdan kam bo'lmasligi shart;

9. Matndagi iqtiboslar matn ichida kvadrat qavsga olinib, quyidagicha [1:105] ko'rinishida yoziladi. Adabiyotlar ro'yxati alifbo tartibida keltiriladi.

10. Maqolani saqlashda faylning nomi muallif familiyasi bilan mos kelishi kerak (Masalan, Xayrullayev A_maqola).

11. Maqolalarni **2023-yil 20-mayga qadar** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasiga qog'oz va elektron shaklda yoki azamatxayrulla@gmail.com elektron manzili, shuningdek, +998904004302 (Yulduz Ziyayeva), +998996667733 (Mahmadiyor Asadov) telefon raqamlariga ochilgan telegram akkaunti orqali MS Word.doc shaklida yuborish mumkin.

12. To'plamga kiritilgan maqolalar sahifasi 15000 so'mdan chop etiladi.

13. Konferensiya materiallari muallif(lar)ga elektron shaklda yuboriladi.

14. Konferensiya materiallariga kiritilgan maqolalarga DOI raqam berilib, to'plam [Google scholar](#) xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslanadi.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası, 219-xona.
Telefon: +998995103967 (prof.Uzoq Jo'raqulov), +998904004302 (Yulduz Ziyayeva), +998996667733 (Mahmadiyor Asadov).